

SOVET MAFKURASI TARG‘IBOTI MATBUOTDA

Elyorjon Hakimjonov

*Quvasoy shahar 5-sonli umumi o`rta ta`lim maktabi
Tarix fani o`qituvchisi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada davriy matbuot sahifalarida Sovet davlati tomonidan olib borilgan targ‘ibot ishlari bo‘yicha ayrim mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so`zlar: BMT, YuNESKO, OAV, KPSS, qo`mita, “Komunizm”, komunistik patyiya, mafkura, sovet, gazeta, sahifa.

Dunyo miqyosida milliy bosma nashrlar, matbuotning xalq xo‘jaligini ko‘tarishdagi ro‘li, matbuotning material-texnik bazasi va unda kadrlar masalasi, davriy matbuot va uning turlarini, bosma ishlarida avtoritar kontseptsiyaning shakllanishi, sovet davlati inqirozidan so‘ng mustaqil davlatlarda matbuot va nashr ishlarining yo‘nalishlari hamda uning davrlashtirish masalalari va ayni davriy matbuotda olib borilgan targ‘ibot va tashviqot tadbirlarini olib borilishi masalalarida kabi ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Zotan, axborot erkinligi tamoyillarini ilgari surish, mintaqalarda axborot olish va tarqatish erkinligi holatiga baho berish, jurnalistlar erkinligi va mustaqilligiga qilinayotgan tajovuzlarning oldini olish, fikr va ifoda erkinligi BMT inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 19-moddasida mustahkamlangan. BMT Bosh Assambleysi tomonidan 1993 yilda YuNESKO Bosh konferentsiyasining

26-sessiyasi tavsiyasi bilan “Jahon matbuot erkinligi kuni” deb e’lon qilinishi esa bu boradagi amaliy qadamlarning eng kattasi bo‘lib qoldi.

Mustaqillik yillari yurtimizda ommaviy axborot vositalarining, matbuotning jamiyatdagi o‘rni va rolini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Sohaning qonunchilik bazasi mukammal shakllandi. Ayni paytda O‘zbekiston mustaqil bosma, OAV va axborot agentliklarini qo‘llab - quvvatlash hamda rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi. Yangi O‘zbekistonda “Ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish¹” vazifalarining belgilab berilishi elektron ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar, nashriyot va bosmaxonalar soni ko‘payib borishiga imkon berdi. Shak-shubhasiz, gazeta va jurnallar nafaqat ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, balki jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega. Zero, gazeta uni nafaqat saqlab qoladi, balki tilning sofligini, adabiy badiiy xususiyatlarini yana ham oshiradi.

Kommunistik partiya o‘z g‘oyalarini jamiyatga yetkazishda bir qancha

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йилл 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйилча Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Халқ сўзи. 2017 йилл 7 февраль.

vositalardan foydalangan. Ushbu vositalar ichida davriy matbuot alohida o‘rin egallagan². O‘sha davrda butun mamalakat bo‘ylab davlatning siyosati va mafkurasi mazmunini xalq ongiga yetkazishda oblast va rayon partiya komitetlari huuzarida tashkil etilgan targ‘ibot va tashviqot bo‘limlari asosiy ijrochilar hisoblangan. Bu bo‘limlar oblast va rayonlarda sovet targ‘iboti tashkilotchisi sifatida asosiy mavqe egallagan. Umumiy holda sovet mafkurasini keng xalq ommasiga yetkazishda gazeta-jurnal kabi davriy matbuot va radio asosiy vositalar bo‘lgan. Aholining alohida ijtimoiy qatlamlari- ishchilar, kolxozchilar va turli tashkilot xodimlari orasida ttsrli tag‘ribot tadbirlarini amlaga oshirishda oblast va rayon partiya komitetlari huzuridagi targ‘ibot va tashviqot bo‘limlari tomonidan tuziladigan targ‘ibot brigadalari (agitbrigadalar) ham muhim rol o‘ynagan.

1953-yil o‘rtalaridan boshlab O‘zbekiston SSRda ham sovet davlatining siyosiy rahbariyatida “komunizmga jadal yurish” mafkurasida umumiy maqsadlarni ifodalash ustuvorlik kasb eta boshladi. Ya’ni, partiya hujjatlarida avvalgidek Stalin shaxsiga emas, balki Lenin g‘oyalari sodiqlik, partianing bu yo‘ldan og‘ishmay borishi lozimligi kabi shiorlar ko‘proq tilga olina boshladi. Boshqa bir tomondan, O‘zbekistondagi arxiv hujjatlari ko‘rsatadiki, 1953-yil mart oyida O‘zbekiston SSRda targ‘ibotning yangicha g‘oyalari va ko‘rinishlari xali mavjud emas edi va sovet targ‘ibotida hali ham Stalin partianing asosiy yo‘lboshchisi, uning g‘oyalari mamlakat taraqqiyotidagi eng asosiy g‘oyaviy dastur sifatida talqin qilinar edi³.

1953-yildan kommunistik partiya qarorlarini targ‘ib qilishning kuchayganligini tashviqot sohasida yangidan amal qila boshlagan qonunchilikdan ham bilish mumkin. Xususan, O‘zbekiston kommunistik partiyasi MK Plenumi qarorlarini targ‘ib qilish bo‘yicha alohida qarori chiqqan. Bu bo‘yicha targ‘ibotlar respublikaning barcha viloyatlarida avj oldirilgan. Masalan, Farg‘ona oblasti rayonlaridagi “Targ‘ibot va tashviqot” bo‘limlari tomonidan ushbu qaror mazmunini avvalo partiya a’zolariga tushuntirish, unda aks etgan asosiy jihatlarni keng xalq vakillariga ham yetkazish vazifasi belgilangan.

KPSS Markaziy Qo‘mitasining 1953-yil iyuldagи plenumining qarorlari Stalin vafotidan keyingi davrda mafkuraviy targ‘ibotni o‘zgartirish jarayonida muhim bosqich bo‘ldi. Ularga ko‘ra, mafkuraviy targ‘ibot materiallari ma’lum o‘zgarishlarga uchradi. Umuman olganda, plenumda shaxsga sig‘inish tanqid qilinib, Stalin nomi g‘oyaviy rahnamo emas, balki partiya ishini davom ettirishda Leninning sodiq shogirdi va izdoshi sifatida taqdim etildi. Buning natijasida keyingi yillarda Stalin nomining tilga olinishi tobora kamaya boshladi. Bunga mos ravishda 1955-yilda “Leninni xotirlash kuni” tiklandi va bu masala matbuotda keng yoritilishi yo‘lga qo‘yildi. Shu

² Швидка М. Қишлоқда оммавий-сиёсий ишлар савиясини янада юқори даражага кўтарилик // “Ўзбекистон Коммунисти”. 1955. №4. – Б. 23.

³ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. Ўзбекистон 1939-1991 йилларда /Масъул муҳаррирлар Р. Абдуллаев, М. Рахимов, К. Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 117.

asnoda matbuot arterialalrida ko‘ishimiz mumkunki uning tavallud sanansi keng ko‘lamda nishonlana boshladi. Masalan, KPSS Markaziy Qo‘mitasining “V.I. Lenin xotirasi kuni to‘g‘risida” qarorida Lenin tug‘ilgan kun – 22-aprelni bayram sifatida umumittifoq miqyosida, ommaviy nishonlash ta’kidlab o‘tilgan⁴.

Shu tariqa ulug‘ dohiy nomi tikanib partiya targ‘ibotining asosiy maqsadi uning g‘oyaviy mafkurasini butun jamiyat bo‘ylab yoyishdan iborat bo‘lib qoldi. O‘zbekiston partiya tashkiloti kasaba uyushmalar va boshqa ommaviy jamoat tashkilotlarining kommunistik qurilishdagi rolini oshirish borasida ko‘p ishlarni amalga oshirdi. KPSS Markaziy Komitetining iyul plenumi qarorlariga asosan respublika partiya tashkiloti shaxs va ommaning tarixdagi o‘rnii haqidagi markscha-lenincha doktrinani keng targ‘ib qila boshladi. Targ‘ibotga 100 mingdan ortiq tashviqotchi va 13 ming targ‘ibotchi jalb etilgan. Faqat O‘zbekiston kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining ma’ruzachi guruhlari tomonidan 1953 yilda aholiga 1000 ga yaqin ma’ruza o‘qildi va 329 ta axborot yetkazildi. Farg‘ona shahrida va respublikaning boshqa shaharlarida nazariy konferentsiyalar o‘tkazildi (Kommuna. 1954-yil, 3-son). Siyosiy ta’lim tarmog‘ida Lenining tarjimai holini, partiya va hukumatning amaldagi siyosati masalalarini o‘rganish uchun to‘garaklar tashkil etila boshladi.

Kommunistik partiya a’zolari va a’zolikka nomzodlar sonini ko‘paytirish boshlandi. Partiya komiteti qoshidagi Targ‘ibot va tashviqot bo‘limlari joylarda targ‘ibot ishlarini olib borishning eng muhim ijrochisiga aylandi. Ularning olib brogan faoliyatlar gazeta saxifalarida to‘xtovsiz yoritib borilgan Targ‘ibot va tashviqot bo‘limlarining asosiy faoliyati targ‘ibotchi kadrlarni hududlarga yuborish, ularni zarur materiallar bilan ta’minalash, markazdan berilgan ko‘rsatmalarini targ‘ibotchilarga yetkazib berish, yuqori tuzilmalarga tegishli hisobotlar berish va ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilishdan iborat edi.

Bu davrda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy xayotini mafkuralashtirish yanada kuchaydi. O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar siyosiy tus olib, ular batamom KPSS mafkurasiga xizmat qilishga buysundirildi. Siyosiy raxbariyat butun sovet jamiyatida sotsialistik musobaqani kyeng quloch yoydirib, kommunistik mexnat uchun xarakat qilishga, “kommunistik qurilishning yangi yutuqlarini “buyuk sanalar orqali nishonlash”ga da’vat etdi⁵. Ammo, “Ulug‘ Oktyabrning 50-yilligiga tayyorgararlik va uni o‘tkazish” (Kommuna. 1977-yil, 217-son) tadbirlarning moxiyati quruq safsata va rasmiyatchilikdan iborat edi, xolos. Xalqni shu yo‘l bilan erishlagan yutuqlar haqiqiy ekaniga ishontirishga urunishdan boshqa narsa emas edi. Gazetaning har yilgi sonlarida “1-may” tadbirlari, “Buyuk oktyabr g‘alabasi”, “Lellin byuk dohiymiz” nomlari ostidagi maqollalarda yuqriddagi

⁴ Марксизм-ленинизм ғолиб идеяларининг буюк тантанаси // Ўзбекистон Коммунисти. 1955. №1. – Б. 7. 51

⁵ Искандаров И. Совет Ўзбекистони саноатининг 50 йилл мобайнидаги ривожи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974. – 216.

fikirlarimiz isbotini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda olib borilgan targ‘ibot ishlarining aholi tomonidan qabul qilinishi samaradorligi esa umuman o‘rganilmagan va tahlil qilinmagan. Davriy matbuot sovet hokimiyatining asosiy targ‘ibot va tashviqot vositasi hisoblangan. Gazetalarning asosiy vazifalaridan biri marksizm-leninizm g’oyalari va partianing davlat boshqaruviga oid siyosatini keng aholi ommasiga yetkazish

Bo‘lgan. Aholining axborot olishdagi asosiy vositalardan biri sifatida davriy matbuot nashrlari yildan yilga o‘z nusxalari sonini oshirib borgan. Keng aholi qatlamlarining nuqtai nazarlari, kommunistik mafkura va sotsialistik davlat qurilishiga bo‘lgan munosabatlarni tahlil qilish maqsadida oddiy xalqning o‘zidan gazetada bosish uchun materiallar yig‘ilgan. Davriy matbuotdagi targ‘ibotda sovet davlatining dunyodagi eng xalqparvar, adolatli, mehnat munosib taqdirlanadigan jamiyat barpo etgani haqidagi balandparvoz xabarlar chop etishga katta e’tibor berilgan. Shu narsa ham aniqki, olib borilgan targ‘ibot ishlarining aholi tomonidan qabul qilinishi samaradorligi esa umuman o‘rganilmagan va tahlil qilinmagan.